

Jizzakh State Pedagogical Institute



**Journal of Preschool
Education**

*The faculty of pre-school
education*

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA CHET TILI O'QITUVCHISINIG NUTQ FAOLIYATI .

Raxmonova Muslima Ilhom qizi

Qo'yboqova Roza

Sattorova Mahliyo

JDPU Maktabgacha ta'lim fakulteti.

Email addres muslimarakhmonova552@gmail

Tel nomer: +998933039993.

Anatatsiya: MTTda tarbiyachining o'rni, tarbiyachining nutq madaniyati , tarbiyachi nutqiga qo'yilgan pedagogik talablar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlari: Nutq,pauza, ritm, tembr,nutq texnikasi, ohang, sheva, mahalliy so'zlar, diksiya, ta'lim tizimi.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng yurtimizda ta'lim tizimiga e'tibor kundan kunga ortib bormoqda va mamlakatimiz ham boshqa yetakchi davlatlar qatoriga kirishmoqda. Ta'lim tizimimizga kirib kelayotgan yangi innovatsiyalar, texnologiyalar barcha yoshlarni shijoat bilan o'qishga intilishga chorlamoqda. Biz yoshlar bu imkoniyatlar qo'ldan kelguncha emas ,undanda ko'proq foydanishimiz shart. Faqatgina bir sohada emas, balki turli sohalarda o'zgarishlar bo'lmoqda. Yoshlarni bir sohada emas turli sohalarda o'zini sinab ko'rishga bo'lgan qiziqishlar tobora ortib bormoqda. Shuningdek, yurtboshimiz tomonidan maktabgacha ta'lim sohasiga ham e'tiborlari kuchli. Ya'ni bolani ilk yosh davridan boshlab tarbiyalash zarur, ularni yangi innavatsilar bilan tanishtirib, chet tillarini o'rgatish zarur hisoblanadi . Shundagina bolada yuksalish kattaroq bo'ladi. Ilk yosh davridan boshlagan bola bilan maktabda borib endi boshlagan bolaning farqi juda kata albatta. Shuning uchun har bir narsaning vaqtida bo'lgani yaxshi. Bu yo'da albatta tarbiyachining o'rni kata albatta. Ota-ona farzandini ertalabdan kechgacha tarbiyachiga ishonadi, uning vazifasi esa bu ishonchni oqlash bo'ladi albatta. Avvalo tarbiyachi o'zi madaniyatli, barcha talablarga javob beradigan, nutq madaniyatiga, talablariga, imidjiga ega bo'lishi kerak. Tarbiyalanuvchi tarbiyachidan andaza oladi, har tomonlama, gapirishidan , yurishidan , turishidan, o'rnak oladi. Pedagog tarbiyachi bilim kunikma va malakaga ega bo'lishi dunyoviy va diniy bilimlarga ega bo'lishi o'z kasbi sevishi , unga hurmat bilan qarashi , metodikasni chuqur o'zlashtirgan bo'lishi ,kasbi yuzasi haqidagi barcha bilimlarga ega bo'lishi o'zining kamchiliklarini ko'ra olishi hamda mashg'ulotlarni to'g'ri va

samarali tashkil etishi shart. Tarbiyachining nutqi avvalo ravon , argon jargonlarga berilmagan , mahalliy so'zlarni ishlatmasdan , urg'ularga e'tibor berib sof so'zlashi kerak. Nutq jarayonida urg'ularni to'g'ri quyishi va ayrim tovushlarni yutib yumormasligi kerak. Diksiya bu nutq bayon qilinayotgan vaqtda tarbiyachi so'zlarni , tovushlarni, bo'g'inlarni, unli va undosh tovushlarni va ravon chiroyli talaffuz qilish deganidir .Demak tarbiyachi bolalarni nutqini rivijlantirish jarayonida bolalarga ko'proq badiiy adabiyotlarni ertak va hikoyalarni ifodali tarzida chiroyli bayon qilish kerakligi talab qilinadi, shundagina bolaning nutqi ravon , so'zlarni duduqlanmasdan to'g'ri talaffuz qiladi.Tarbiyachi bolalar bilan muloqotda bo'lar ekan nutqining ta'sirchanligi va ifodaviyligiga etibor qaratishi lozimdir. Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga ertaklar o'qib berar ekan , uning so'zlari tarbiyalanuvchilar yoshiga mos bo'lmog'i lozim. Murakkab bo'lmagan so'zlardan , uzun iboralardan foydalanmaganligi maqul hisoblanadi. Chunki murakkab so'zlar, uzun iboralar tarbiyalanuvchilarga qiyinlik tug'dirishi, so'zlarni tushunmasligi, talaffuz qilolmasligi, esda saqlab qololmasligini keltirib chiqaradi. Shuning uchun har bir matnlar, ertaklar, kitoblar, she'rlar bolalar yoshiga mos bo'lishi kerak. Keyinchalik ya'ni kichik guruhdan to tayyorlov guruhigacha ertaklar, she'rlar, matnlar osonlikdan murakkabga qarab yuksalib boraveradi. Tarbiyalanuvchilar kitoblarni o'qib berayotganda baland ham emas, past ham , o'rta me'yorda ham emas, o'zgaruvchan bo'lishi kerak. Rollarga kirgan holda bo'lishi kerak. Agar tarbiyachi baland ovozda, bir tekis, rollarga kirmagan holda o'qib bersa bolalar baland ovozdan qo'rqishi yoki bir xillikdan zerikishi mumkin. Shuning uchun o'zgaruvchan bo'lishi kerak. Barcha kitoblarni har xil usulda, rollarga kirgan holda o'qib berishi kerak . O'shanda bolalar qiziqadi, o'ziga kerak bo'lgan bilimlarga ega bo'ladi. Bilamizki bolalar, ko'rganini tezda eslab qoladi shuning uchun tarbiyachi ko'rgazmali metoddan ham foydalangan holda mashg'ulotlarni o'tkazishi kerak bo'ladi. Har bir metodddan o'z o'rnida bajarish zarur hisoblanadi suhbat va ko'rgazmali metoddan esa ko'proq foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi va men shunday o'ylayman albatt. Ikkala metodni birgalikda ko'proq qo'llash zarur hisoblanadi. Yurtimizda chet tillariga bo'lgan talab ham kundan kunga ortib bormoqda. Bu esa albatta kelajak yoshlarining butun jahonni bilishi , davlatlarga sayohat qilishi, chet davlat texnologiyalarini o'rganib yurtimizga kerakli kadr bo'lishi uchun muhimdir. Bularning barchasiga yuqorida ko'rsatilgan talablar albatta shart va muhimdir. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonimizdagi barcha farzandlarni yetuk qilib tarbiyalash, ularni Vatanimizga foydasi tegadigan yetuk shaxs qilib yetkazish barcha pedagog va ota – onalar oldidagi eng katta vazifasidir. Butun dunyodagi barcha bolalar o'z yurtining barkamol farzandi bo'lishga haqlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M Mirziyoyev 2017- 2021 –yilda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi qarori T 2016 yil 29- dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim to'g'risidagi nizom Maktabgacha tarbiya. T2000, 1 son.
3. Asqarova . M va boshqalar Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish. T 2001 yil .
4. No'tq o'stirish Bolalar bog'chalari uchun sh'er va hikoyalar to'plami T 2020 yil .
5. SHodiyeva Q Maktabgacha yoshdagi bolalarni nutq qobiliyatlarni rivijlantirish . T O'qituvchi – 2019 yil.